



TRANSFORMATIONAL PROCESSES BETWEEN THE SETTLERS AND THE LOCAL POPULATION IN TURKESTAN DURING THE SECOND HALF OF THE 19TH CENTURY AND THE EARLY 20TH CENTURY

Sh.V. Temirova

researcher at Navoi State University
Navoi, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Law, decision, regulation, technic, K.P. von Kaufman, Chernyaev, Grodekov, Palen, statistics.

Received: 20.07.25

Accepted: 21.07.25

Published: 22.07.25

Abstract: This article analyzes the empire-wide and local legal-normative documents aimed at the policy of population relocation to Turkestan in the second half of the 19th century - the beginning of the 20th century of the Russian Empire went.

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI VA XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONGA KO'CHIRILGANLAR BILAN MAHALLIY XALQ O'RTASIDA KECHGAN TRANSFORMATSION JARAYONLAR

Sh.V. Temirova

Navoiy davlat universiteti tadqiqotchisi
Navoiy, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Qonun, qaror, nizom, texnika, K.P.fon Kaufman, Chernyayev, Grodekov, Palen, statistika.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Rossiya imperiyasining XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi Turkistonga aholini ko'chirish siyosatiga qaratilgan imperiya miqyosidagi va mahalliy xarakterdagi huquqiy-me'yoriy hujjatlari tahlil qilingan. Mavzuning asosiy jihatlari ilmiy adabiyotlar, tarixiy manba va xorijda nashr etilgan ilmiy ishlar tahlili orqali olib borilgan.

ТРАНСФОРМАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ ПЕРЕСЕЛЕНЦАМИ И МЕСТНЫМ НАСЕЛЕНИЕМ В ТУРКЕСТАНЕ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX ВЕКА И В НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Ш.В. Темирова*исследователь Навоийского государственного университета
Навоий, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Закон, решение, регулирование, техника, К.П. фон Кауфман, Черняев, Гродеков, Пален, статистика.**Аннотация:** В статье анализируются общеимперские и местные нормативно-правовые документы, направленные на политику переселения населения в Туркестан во второй половине XIX - начале XX века Российской империи.

Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasini istilo qilishi asnosida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Turkiston o'lkasiga ko'chirilgan chet tilli tub joy aholi iqtisodiy hayotida bir qancha o'zgarishlar yuz berdi. Rossiya imperiyasi tomonidan Turkiston o'lkasini, xususan, imperiya sanoatiga kerakli xomashyolarni o'zlashtirish maqsadida birinchi o'rinda yer-mulk masalalari isloh etildi. Vaqf va boshqa yerlar davlat foydasiga o'zlashtirildi va umuman, barcha yerlar davlat mulki deb e'lon qilindi. Imperiya manfaatlariga mos ravishdagi soliq tizimi joriy etildi. Mahsuldor, qo'riq va dasht-cho'l yerlarga alohida soliq ta'riflari belgilandi. Unga ko'ra, o'troq aholidan yerning hajmiga ko'ra, ko'chmanchi aholidan har bir o'tov bo'yicha soliq olish belgilandi.

Mustamlakachi ma'muriyat Turkiston o'lkasining o'troq, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholisidan olinadigan soliqlarni yillar davrida oshirib bordi. Masalan, arxiv manbalariga ko'ra, 1865-1867-yillarda har bir o'tovdan olinadigan o'lpon 1,5 rubl bo'lgan bo'lsa, 1868-1881-yillarda 2,75 rublga oshgan. 1882- yildan esa, 4 rubl miqdorida olinib boshlandi [1]. XX asr boshlariga kelib, har bir o'tovdan yillik bir qo'y bahosida soliqlar olingan edi. Bu davrda bitta qo'yning narxi (1907-1910-yillar) 7-9 rubl ekanligi hisobga olinadigan bo'lsa, ushbu soliq miqdori kam emas edi[2]. Bundan tashqari, ko'chmanchilarning har bir oilasidan (aslida yagona oila bo'lgan katta va kichik avlod oilalarini ajratgan holda) mahalliy ehtiyoj uchun (shu jumladan ma'muriyat maoshi uchun ham) 1,25 rubl va ko'pchiligi mutlaqo aloqador bo'lmagan rus-tuzem maktablarini ta'minlash uchun 0,5 rubldan olinardi[3]. Manbalarda Sirdaryo viloyati Avliyoota uyezdiga ko'chirilgan nemis mennonitlari 6 xil nav kartoshkani Volgabo'yidan keltirib ekishgani, ular vegetatsiyasi 6-8 haftalik ekanligi qayd etiladi. Ushbu navlar orasida "Dvukar", "Qora kulrang", "Raskel" kabilar o'ta hosildor va ta'mi mazali bo'lib chiqqan. Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori N.Grodekov Avliyoota harbiy garnizoni yer maydonlari va ko'chib kelgan dehqonlarga ushbu urug'larni tekin tarqatgan. Yirik yer egasi G.I.Krauze Toshkent uyezdi Salor daryosi bo'yidagi 52 desyatinali yeriga 1884- yilda nemis mennonitlari keltirgan kartoshka urug'ini ekib, har bir desyatina yerdan 800-1000 pud kartoshka hosil olgan.

Sharqshunos olim V.V. Bartold ta'kidlashicha, manbalarda "shayton olma" deb nom olgan "Kartoshka ekini birinchilardan bo'lib, Farg'ona viloyati Namangan uyezdi Olmos qishlog'ida 300 desyatina yerga ekilgan"[4] deb ma'lumot berilgan. Kartoshka maydonlari 1891-1900-yillarda kengayib borishi va hosildorlik miqdorining oshishi birgina Farg'ona viloyati bo'yicha quyidagicha bo'lgan edi: 1891-yilda viloyat bo'yicha 191 desyatina yerga kartoshka ekilib, o'rtacha 377.5 pud hosil olishgan[5], 1900-yilda 6650 desyatina yerga ushbu sabzavot ekilib, 172.100 pud hosil olingan va 1 desyatina hosildorlik 22.4 sentnerni tashkil etgan, 1908-yilda esa 594.73 pudni tashkil etgandi[6]. Ko'chirilgan aholi o'z xo'jaligida lavlagining ikkita navini (oq va qizil lavlagi), baqlajon va karamning uch xil navlarini, bulg'or qalampirining besh xil navini, qulupnayning o'n to'rt xil navini yetishtirgan. Kungaboqar urug'lari ham Janubiy Rossiya (Malorossiya) dehqonlari tomonidan keltirilgan.

Rossiya imperiyasi guberniyalaridan ko'chib kelganlarning xo'jaligida o'stirilgan ushbu ekin navlari ko'chib kelganlar orqali mahalliy aholiga kirib borgan edi. Rossiyaning janubi va janubi-g'arbidan ko'chib kelganlar lavlagi yetishtirish asosida lavlagi shirasidan qand va shakar olish, vino, pivo, sidr olish sanoatiga asos solishgan. Biroq kungaboqardan yog' olish asnosida yog'-moy sanoati va lavlagi shirasidan qand, shakar zavodlari barpo etish kutilgan natijani bermadi.

XIX asrning oxirlariga kelib, uy-joy qurilishidagi eng asosiy yangiliklardan biri bino tomini yopishda cherepitsadan foydalanishning o'zlashtirilishi bo'lgan edi[7]. Bu esa, imoratning mustahkamligini va foydalanish davriyligini uzaytirar edi. Yangi qurilish texnikalari va materiallarining kirib kelishi bilan mahalliy aholi maishiy hayotida tunuka, strapela, sement, kraska, lak, ohak, mix kabi terminlarining paydo bo'lishiga olib keldi[8]. Chet tilli aholining Turkiston o'lkasiga ko'chishi va ularning uylariga monand ravishda mahalliy aholi uy-joylarning ichki interyerida ham birmuncha o'zgarishlar kuzatiladi. Eshik va derazalardagi ruslarga xos sharnir (oshiq-moshiq), yog'och pol va potolok, oqlangan tekis devor, tutqichlar, isitish uchun rus pechi ham shu yangiliklar qatoridan joy olgan. V.I.Kushelevskiyning ma'lumoticha, mahalliy aholi uy qurilishida, hatto, boylarning uylari va saroylarda ham ilgari yog'och pol bo'lmagan[9]. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida uy-joy qurilishida yog'och, ayniqsa, temir va oynakning qo'llanilishi, uylarning hovlisi devor va panjaralar bilan o'rab olinishi keskin ortgan edi. Albatta, bu o'ziga to'q xonadonlarda mavjud bo'lgan edi. Xonadonlarning jihozlari ham bu davrga hamohang o'zgara boshlagan. Yevropa va Rossiya davlatida ishlab chiqarilgan, sandiq va qutichalar, sham va sovunlar, stol-stul, divan, kreslo, parda, devor va qo'l soatlari, hamda oshxona mebellari, jumladan, chinni idish-tovoqlar, choynak, qoshiq-vilka, stakan, chashka, grafin samovar, kerosin lampa, dazmol mahalliy aholi uylarni ham bezab turgan[10]. Dastlabki dazmollar 15-20 kg atrofida bo'lib, uning yuqori qismida qopqoqli cho'g'li olov solinadigan o'txonasi

bo'lgan. Ushbu dazmollar 35 rubldan 50 rublgacha baholangan. Bundan tashqari, badavlat xonadon uy bekalari bisotida "Zinger" tikuv mashinalari mavjud bo'lgan[11]. "Uylarning ayollar qismi mehmonxonasida,– deb yozgan V. I. Kushelevskiy, – doimo Irbit yarmarkasidan keltirilgan katta rus sandig'i bo'ladi"[12]. Ushbu Yevropacha madaniyat namunalari, avvalida, dabdabalik belgisi sifatida kirib kelgan bo'lsa, ayrim rus moddiy madaniyati namunalari hisoblangan anjomlar, asbob-uskunalar xo'jalikda foydalanish qulayligi uchun mahalliy aholi kundalik turmushida muhim o'rin egallagan.

Bu davrda ko'chib kelgan aholi bilan birgalikda elektr asbob-uskunolari, telefon, pochta-telegraf, metaldan yasalgan asbob-uskunalar, fotoapparat, fotostudiya, patefon, grammafoni, grammaplastinka singari ko'plab maishiy texnikalar, asbob-uskunalar va yangiliklar kirib kelgan edi. Ushbu texnikalar haqidagi ma'lumotlarni va reklamalarni bevosita bu davrga oid manbalar, gazeta va jurnallardan ko'rishimiz mumkin. Bu davrda maishiy texnikalarni sotadigan ko'plab do'konlar Toshkent, Qo'qon, Samarqand, Buxoro, Chorjo'y kabi shaharlarning yangi va eski qismida faoliyat yuritgan. Ayrim do'kon va savdo magazinlarining egalari bu kabi texnikalarni to'g'ridan-to'g'ri Rossiya imperiyasining Sankt-Peterburg va Moskva shaharlaridagi omborlardan xarid qilardi. XIX asr 80-90-yillarida o'lkaga nemis mennonitlari bilan kinoapparat va fotoapparat kirib kelgan edi. Ma'lumot uchun nemis mennoniti kinofoto ustasi Vilgelm Pinner birinchi kinoapparat va fotoapparatni 1890-yillarda Turkistonga olib kelgan edi. Tez orada mintaqa shaharlarida fotoatolyalar, foto ko'rgazmalar va shu bilan shug'ullanuvchi savdo bo'limlari, firmalar, jamiyatlar vujudga kelgan edi. Yevropa va Rossiya fotograflarining Turkistonga tashrif buyurishi natijasida to'plangan materiallar va kolleksiyalar natijasida XIX asr oxirida "Turkiston fotografiya va nafis san'at havaskorlari jamiyati" tuzilganligi bunga misol bo'la oladi. 1899-yilda Toshkentda ilk bor fotoko'rgazma tashkil etilib, mahalliy va xorij fotograflarining 12 bo'limdan joy olgan 25 mingta fotolavhasi namoyish etildi. 1910-yilda Toshkentda 20 ta fotoatolye mavjud bo'lib, 1902-yil 14-aprelda shaharning Shayhontohur dahasi Hovuzbog' mahallasida birinchi musulmon fotografiya atelyesini Ilhomjon Inog'omov ochgandi. Bu davrda ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi aholi maishiy turmushida ham rus moddiy madaniyatining ta'siri yaqqol sezila boshlangan edi. Mazkur o'zgarishlar, ayniqsa, yangi barpo etilgan yoki barpo etilishi davom etayotgan posyolkalar atrofidagi chorvadorlarda ko'proq sezilgan. Ularda rus aholi bilan yaqin aloqa tufayli yangi nusxadagi mebellar, krovat, stol-stul kabi jihozlar, hamda qozon, samovar, soat, qoshiq, vilka, bolta, arra kabi uy-ro'zg'or buyumlari va ulardan foydalanish o'zlashtirilgan. Ulardagi jun, teri va yog'ochdan tayyorlangan buyumlar asta-sekinlik bilan o'z ahamiyatini yo'qota borgan. Biroq, ta'kidlash joizki, maishiy texnikalarning narx-navosi yuqori bo'lganligi tufayli bu kabi texnikalarni kambag'al bo'lgan Turkistonliklar xarid qilish quvvatiga

ega emasdi. Shuningdek, ushbu maishiy texnikalarning xarid bozori mahalliy aholi orasida avjida bo'lmaganligi tufayli dazmolga o'xshagan texnikalar o'lkaga oz miqdorda keltirilgandi.

Bu davrda chet tilli va mahalliy aholi o'rtasida kiyinish madaniyatida ham birmuncha transformatsion jarayonlar kuzatiladi. Mahalliy aholi turli taqiq va qiyinchiliklar bilan bo'lsada qulay, ixcham va chidamliligi uchun ko'chib kelganlar kiyinish madaniyatini o'zlashtirib borgan edi. Rus aholi bilan kamzul, kitel, botinka, etik, shlyapa, tufli, fabrika kalishlari kabi kiyimlar kirib kelgan va mahalliy aholiga urf bo'lgan edi. Bu kiyimlardan foydalanish kishining boy-badavlatligi, obro'-e'tiborli ekanligi va zamonaviyligini bildirib turgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенной графом К.К.Паленом.Т.8,-Тошкент,1910-С. 10;
2. O'zbekiston Milliy arxivi. I-16 jamg'arma,1-ro'yxat, 757-ish, 6-7 – varaqlar.
3. Элова Д.Д. XIX аср охири - XX аср бошларида туркистонда янги техникалар тарқалишининг иқтисодий-ижтимоий ва маданий-маиший ҳаётга таъсири. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори диссертацияси, Бухоро-2022 йил,54 бет.
4. Бартольд.В.В. История культурной жизни Туркистана. Ленинград: Изд. Академии Наук СССР. 1927.-С.58.
- 5.Хайитов Ж.Ш. Туркистонда янги экин навларининг тарқалиши ва улардаги ўзгаришлар (XIX аср охири-XX аср бошлари). (2-нашри). “Бухоро” нашриёти, 2021, -Б.107-109.
- 6.Равшанов Ш.Р. Россия империясининг Фарғона вилоятига аҳолини кўчириш сиёсати ва унинг оқибатлари (XIX асрнинг иккинчи ярми-XX аср бошлари). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси, Бухоро.-2023 йил, Б.-68, Обзор Ферганской области. – Новый Маргелан-1891.-С.3
- 7.Шаниязов К., Исмаилов Х. И. Этнографические очерки материальной культуры узбеков конец XIX – начало XX вв. – Ташкент, 1981. – С. 30.
- 8.Писарчик А. К. Строительные материалы и конструктивные приемы народных мастеров Ферганской долины в XIX – начале XX в. // СЭС. Т. I. – Москва, 1954. – С. 229.
- 9.Кушелевский В.И. Материалы для медицинской географии санитарного описания Ферганской области. Т.1.-Новый Маргелань. 1890. – С. 317.
- 10.Вульфонтс Э. С. Как живут сарты. – Москва, 1908. – С. 117.
- 11.O'zbekiton Milliy arxivi, I-2-fond, 1-ro'yxat, 298-yig'majild, 28-varaq,
- 12.Кушелевский В. И. Материалы для медицинской географии санитарного описания Ферганской области. Т.1.-Новый Маргелань. 1890. – С. 311.